

Temirov Farrux Umedovich
Buxoro davlat universiteti
dotsenti, tarix fanlari doktori (DSc)

Bafoyeva Sarvinoz O'ktamovna
Buxoro davlat universiteti
Arxeologiya mutaxassisligi
II bosqich magistranti

BUXORO SHAHRINING VUJUDGA KELISHI VA TARIXIY OMILLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro shahrining vujudga kelishi, uning qadimgi tarixiy ildizlari hamda taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar tahlil qilinadi. Tadqiqotda shaharning geografik joylashuvi, Buyuk Ipak yo'lidagi strategik ahamiyati, savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniy aloqalarning rivojlanishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, Buxoroning qadimiy sug'orish tizimlari, siyosiy markaz sifatidagi mavqei va turli davrlardagi tarixiy manbalarda aks etishi ilmiy asosda bayon etiladi. Maqolada shaharning shakllanish bosqichlari hamda uning Markaziy Osiyo sivilizatsiyasidagi tutgan o'rni tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro, qadimiy shahar, Buyuk Ipak yo'li, tarixiy omillar, sug'orish tizimi, savdo-sotiq, hunarmandchilik, Markaziy Osiyo, madaniy meros, sivilizatsiya.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ ГОРОДА БУХАРА И ИСТОРИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ЕГО РАЗВИТИЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы возникновения Бухара, её древние исторические корни и основные факторы, повлиявшие на развитие города. В исследовании освещаются географическое положение города, его стратегическое значение на Великом шелковом пути, а также роль торговли, ремесленничества и культурных связей в процессе развития. Кроме того, анализируются древние оросительные системы Бухары, её статус политического центра и отражение города в исторических источниках различных эпох. В статье этапы формирования города и его место в цивилизации Центральной Азии рассматриваются на основе исторических источников и научной литературы.

Ключевые слова: Бухара, древний город, Великий шелковый путь, исторические факторы, оросительная система, торговля, ремесленничество, Центральная Азия, культурное наследие, цивилизация.

THE EMERGENCE OF BUKHARA AND THE HISTORICAL FACTORS OF ITS DEVELOPMENT

Annotation. This article examines the origin of Bukhara, its ancient historical roots, and the main factors that influenced the city's development. The study highlights the geographical location of the city, its strategic importance along the Great Silk Road, and the role of trade, craftsmanship, and cultural relations in its growth. In addition, the article analyzes Bukhara's ancient irrigation systems, its status as a political center, and its representation in historical sources from different periods. The stages of the city's formation and its place in the civilization of Central Asia are discussed on the basis of historical sources and scientific literature.

Keywords: Bukhara, ancient city, Great Silk Road, historical factors, irrigation system, trade, craftsmanship, Central Asia, cultural heritage, civilization.

Buxoro – Sharqning mashhur qadimiy shaharlaridan biri. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Buxoroga mil.av. 1-ming yillik o'rtalarida asos solingan. Darhaqiqat, Zarafshon daryosining quyi oqimida joylashgan Buxoro va uning atrofidagi yerlar qadimda nihoyatda xushmanzara — hayvonot va o'simlik dunyosi betakror, ko'l va oqar suvlarga boy bo'lib, tarixchi Narshaxiyning

“Buxoro tarixi” asaridagi ma’lumotlarda shunday tasvirlangan. Buxoroning islomga qadar bo’lgan siyosiy tarixi xususidagi ma’lumotlar mil.VII–VIII asrlar bilan chegaralanadi. Buxoro VI–VIII-asrlar boshida Buxorxudotlar hokimligi poytaxti bo’lgan.

709-yil uni Arab xalifaligi fath etgan, 999-yil qoraxoniylar, 1220-yil. mo’g’ullar bosib olgan. 1370-yildan Buxoro Temuriylar davlati, XVI asr boshidan shayboniylar (1533-yil bu davlat poytaxti Samarqanddan Buxoroga ko’chirilishi tufayli Buxoro xonligi deb atala boshlagan) va 1533-yildan 1920-yilgacha Buxoro xonligi (amirligi) markazi bo’lgan, so’ng Buxoro buxoro bosqini natijasida sho’rolar tomonidan bosib olingan. 1920-yil 8-sentyabrdan Buxoro Buxoro xalq soveti respublikasining poytaxti bo’lgan. Buxoroni arxeologik jihatdan faol o’rganish ishlari 70-80-yillarga to’g’ri keladi. Buxorodan 40 km uzoqlikda, hozirgi Shofirkon tumanining sahroga tutash hududlarida bizning “Palmira”miz, ya’ni Buxorxudotlar poytaxti-Varaxsha shahri xarobalari bor.

Buxoroning qadimiy va ko’hna obidalarini o’rganishga katta hissa qo’shgan arxeolog Buxoro yaqinidagi Buxoroxudotlarning qarorgohi-Varaxshadagi qazishmalarga V.A.Shishkin nomi bilan bog’liq. Tarixdan ma’lumki, arablar istilosi (eramizning VII–VIII asrlari)gacha Buxoroda “Buxorxudotlar” hukmronlik qilishgan. Buxorxudotlarning go’zal shaharlaridan biri Varaxsha (ayrim manbaalarda “Rajfaidun”) shahri bo’lganligi ham tarixiy manbalarda bitilgan. Islomdan oldingi davrlardayoq saroy haqida uning tarovati naqlga aylangan. Varaxshada (buxoroxudotlar saroyi)da olib borilgan izlanishlarda “Varaxsha” Tarixiy-arxeologik tadqiqot tajribasi Bunday yuksak bahoga, ko’p jihatdan, uning ajoyib bezagi sabab bo’lib, qazishmalar vaqtida shunday bezak qoldiqlari topilgan. Devoriy surat, ganch o’ymakorligi ularning biri bevosita memorchilik bilan uzviy bog’liq bo’lgan.

Varaxsha saroyidagi syujetli surat rang-barangdir. U sug’d eposi manzaralarini-fillarda savlat to’kib o’tirgan qahramonlarning ularga hujum qilayotgan chitalar bilan kurashini, qantoli tuyalar haykaliga o’rnatilgan taxtdagi hukmdor aks etgan saroy manzaralari hukmdorning muqaddas olov oldida malika va taxt vorisi bilan turgan manzarasini ifoda etadi. Muhhammad Narshaxiyga ko’ra, Varaxshada asosan so’g’diylar yashagan va shahar arablar kelguncha juda hashamatli bo’lgan. U ayniqsa VII–IX asrlarda gullab gurkiragan.

Varaxshadagi devoriy suratlar ilohiy g’oyani, binobarin, podshohning hukmdorligi huquqi mustahkamligini tarannum etadi. Varaxsha rasmlari kompozision tuzilishining hamohangligi va kolorit ohanglarining boyligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga uslubiyatda, bir qator o’ziga xos obrazlardan foydalanishda Varaxsha haykaltaroshlarning qadimiy yunon va hind-budda san’ati an’analari bilan bog’liqlikning bevosita ifodasidir.

Shaharning paydo bo’lishi, moziyning uzoq o’tmishlariga borib taqaladi. X asrda yashab o’tgan tarixchi Muhammad Narshaxiy "Poykent Buxorodan qadimiyroqdir", deb yozib qoldirgan. Buxoro zaminni qadim zamonlardan ilm-fanning turli yo’nalishlarida olimlar yetishtirib berdi. Shaharning buyukligini unga, shubhasiz, islom dini olib keldi. Buxoro vohasida juda qadim zamonlardan bir qancha yirik shaharlar bo’lgan: Poykent, Romiton, Varaxsha va Vobkent shular jumlasidan. Tarixiy manbalar-o’tmishda odamzod qo’li bilan bunyod etilgan tarixiy jarayon izlarini o’zida aks ettiruvchi va kishilik jamiyati tarixini o’rganish imkonini beruvchi hozirgi kungacha saqlangan har qanday osori atiqalar, yozma manbalar, ma’naviy (til, e’tiqod, urf-odat) bu qadriyatlaridir.

Manbalar tarixiy tadqiqotlarning asosiy poydevori hisoblanadi. Ularni keng ko’lamda sinchiklab o’rganmasdan turib kishilik jamiyatining taraqqiyoti tarixini tahlil qilib bo’lmaydi. Buxorodan 44 km janubiy-g’arbda, Jondor va Qorako’l tumanlari tutashgan hududda joylashgan. O’rta asr yozma manbalarida shahar Boykand, Xitoy solnomalarida esa Bi nomlari bilan tilga olingan. Uning nomlari "Quyishahar" ma’nosini anglatadi. Poykent tashqi devorlarining nihoyatda mustahkamligidan shahar ilk o’rta asrlarda "Shahristoni Ro’in", ya’ni "Jezdan qurilgan shahriston" (Jez shahar) nomi bilan shuhrat topgan. Poykent qadimgi Buxoro hukmdorlarining qarorgohi bo’lgan. Har bir podsho o’zi uchun bu shaharda o’rdugoh barpo etgan. Eftaliylar davlati hukmronligi davrida (V asrning 2-yarmi va VI asr boshlari) u poytaxtga aylantirilgan.

Narshaxiyning yozishicha, shahar aholisining aksariyati savdogar bo'lib, ular Xitoy va dengiz bo'yi mamlakatlari bilan savdo qilganlar va juda davlatmand bo'lgan. Shu boisdan arab geograflari Ibn Hurdodbeh va Ibn al-Faqihlar Poykentni "Madina attujjor", ya'ni "Savdogarlar shaxri" nomi bilan atalgan. IX asrning oxirgi choragi va X asr mobaynida Poykent va uning dehqonchilik vohasi ravnaq topadi. Ichki va tashqi savdo munosabatlari kengayib kulollik, shishasozlik, koshinkorlik, misgarlik va binokorlik taraqqiy etadi. Ilm-fan, ayniqsa, fiqhshunoslik rivojlanib, bir guruh Poykentlik fiqhshunos olimlar yetishib chiqadi. Ammo somoniylar hukmronligi barham topgach, XI asrda Poykentning sug'orish tarmoklari suvsizlikdan qurib qoladi. Oqibatda shahar bo'shab, harobaga aylanadi. Keyinchalik mahalliy xalq orasida «Shahri vayron» nomini olgan.

Islomgacha bo'lgan davrda Poykentda ham Varaxsha, Afrosiyob, Panjikent kabi shaharlardagi singari devoriy rasm sa'nati mavjud bo'lgan. U bino ichki bezaklarining ajralmas qismi sanalgan. Devoriy bezak.Poykent posyolkasidagi badavlat fuqaroning uyi devor qismidan o'yib olingan loydan yasalgan devoriy bezak parchalari. Parchalar panellarga bo'lingan. Qizg'ish jiggar va sariq ranglarda bo'yalgan. Devoriy bezaklarning alohida qismlari to'rtburchak shaklda. Bezaklari o'yma shaklda tasvirlangan. Atrof qismida shaxmat usulidagi bezaklar mavjud. Devoriy bezaklarning o'rta qismida gumbaz shakli tasvirlangan. Bezaklari naqshli va gulli shaklda.Mamlakatimizdagi asrlar yukini ko'tarib kelayotgan mavjud tarixiy obidalar, qadamjolar barchamizning g'ururimiz. Ular bizga ajdodlardan qolgan buyuk meros.Ularni asrab, avaylab kelajak avlodlarga busbutun yetkazish barchamiz uchun muhim vazifadir. Har birimiz yurtimizdagi tarixiy obidalarining tarixini bilishimiz va o'z farzandlarimizga o'rgatishimiz lozim.

Zarafshon vodiysining quyi qismiga joylashgan Buxoro vohasi paydo bo'lishi to'g'risida poleogeografik mulohazalarda ilk o'rta asrlardayoq daryo vodiylari shakllanishi va bu jarayonda suv manbalarining tabiiy roli haqida etarli va aniq tushunchaga ega bo'linganligidan dalolat beradi. Qizig'i shundaki, bundan qariyb ming yil avval bu fikr naqadar to'g'ri ekanligini o'lkada olib borilgan gidrogeologik va arxeologik tadqiqotlar tasdiqlab berdi.

Arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, uzoq o'tmishda Zarafshon daryosining quyi o'zanlaridan biri hali ko'hna Buxorovujudga kelmasdan avval, hozirgi vaqtda qad ko'tarib turgan Ulug'bek va Abdulazizxon madrasalari, Toqi Zargaron, Mir Arab madrasasi, Minorai Kalon va Masjidi Kalon kabi me'morchilik obidalari bo'y cho'zgan zamin o'rnidan oqib o'tgan. Bu daryo o'zanining kengligi 100-120 metrga borgan, ilk o'rta asr yozma manbalarida u "Zarirud" yoki "Rudizari Buxoro" nomlari bilan tilga olingan. Bu o'zanning toshqin suvlari qadim zamonlardan Poykand shahrigacha etib borgan. Bu ko'hna o'zanning daryovoti va tevarak-atrofini qoplab yotgan qalin butazor va tuqaylarning asriy chirindilaridan Buxoro shahri ostida torf qatlamlari hosil bo'lgan.

Ayrim qazishma maydonlarida qayd etilgan kuchli yong'in qoldiqlariga qaraganda, Buxoro xududini ilk bor o'zlashtirishga kirishgan qadimgi "cho'lquvarlar" bu ko'hna daryovot sohillariga kelib o'rinishib, to'qaylarga o't qo'yib er ochgan bo'lishsa ham ajab emas. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiyning ta'kidlashicha, "daryo tomondan odamlar yig'ilib, u joy obod bo'ldi. Odamlar Turkiston tomonidan kelar edilar. Bu viloyatda suv va daraxtlar, ov qilinadigan jonivorlar ko'p bo'lganidan kishilarga bu viloyat xush kelib, shu erga joylashdilar".

Arxeologik tadqiqotlar shuni aniqlab berdiki, Buxoro shahri dastavval qadimgi Zarirud o'zanining ikki sohilida alohida-alohida joylashgan uchta mustaqil qishloq shaklida qad ko'targan. Ulardan biri daryoning o'ng sohilida hozirgi Arkning o'rnida bo'lgan, qolgan ikkitasi Masjidi Kalon, Minorai Kalon, Mir Arab madrasasi va Timi Abdullaxon arxitektura yodgorliklari yo'nalishida, ilk o'rta asrlardagi Buxoro shaxristoni o'rnida, daryo o'zanining ikki betida bir-biriga qarama-qarshi joylashgan ekan.

Arkda olib borilgan qazish ishlarining natijalarini g'oyat samarali bo'ldi. Eng muhimi, arkni o'rganish tarixida birinchi marotaba uning qadimgi quyi zaminigacha kovlab tushildi. Shaharning bu qadimgi qismi ostida hosil bo'lgan madaniy qatlamning umumiy qalinligi 20 metrdan oshiqroq bo'lib, uning ostki qatlamidan kovlab olingan arxeologik topilmalarning eng ko'hnasi miloddan avvalgi IV asr oxiri va III asr boshlariga mansub edi.

Moddiy madaniyat izlari orasida 15,5 metr hamda 18,5 metr chuqurlikda kovlab ochilgan qadimgi ikki mudofaa devorlari qoldiqlarning topilishi shahar tarixini o'rganishda ayniqsa, muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Birinchi mudofaa devori 2,5-3, ikkinchisi 2-2,5 metr balandlikda saqlangan. Yuqori qatlamdan topilgan devor milodning III-IV asrlarida, quyi qatlamdan topilgani esa milodgacha bo'lgan IV-III asrlarda paxsadan barpo etilgan. Bu maydonda madaniy qatlam hosil bo'lgan qadimiy er sathiga qaraganda, Buxoro arki ostida qad ko'targan dastlabki qishloq Zarirud o'zanining so'ng sohilida joylashgan tabiiy do'nglik ustida paydo bo'lgan bo'lib, bu do'nglik tevarak-atrofning umumiy relefidan 8-10 metr baland bo'lgan. Maydoni 1,5-2 gektardan oshmagan.

Arxeologik qazishlar natijasida kovlab ochilgan tarixiy manzara shuni ko'rsatadiki, Buxoroning qadimgi markaziy qismi, Arkdan sharqroqda, daryo bo'yida relefi jihatdan arkka nisbatan ancha-muncha pastroq erda joylashgan, maydoni 12-13 gektarga teng bo'lgan. Mir Arab madrasasining yaqinida olib borilgan qazishmalar chog'ida 4,5 metr chuqurlikda shaharning qadimgi mudofaa devori qoldiqlari qayd etildi. Paxsa hamda yirik hajmdagi xom g'ishtlardan urib chiqilgan bu qala devori 5-6 metr balandlikda saqlangan. Devor poydevori ostida qolib ketgan madaniy qatlam va unda qayd etilgan arxeologik topilmalardan ma'lum bo'lishicha, bu qadimgi mudofaa inshooti milodning V-VI asrlarida qad ko'targan.

Buxoro shahrining barpo negizi bo'lgan uchinchi qishloq Zarirud o'zanining so'l qirg'og'ida joylashgan bo'lib, u ham alohida mudofaa devori bilan o'rab olingan. Maydoni 6-7 gektar. Bu nohiyada so'nggi o'rta asrlarda Buxoro qozikalonining saroyi va mahkamasi joylashgan bo'lgan. Qizig'i shundaki, tadqiq qilingan 18 metrli madaniy qatlamning 9 metri miloddan avvalgi IV-I hamda milodning I-IV asrlarida hosil bo'lgan. Mazkur qatlamda qayd etilgan turli xil ashyoviy topilmalar yuqori sifatli shahar hunarmandchiligi mahsulotining qoldiqlarni bo'lib, ular bu erda qadimdan shaharning gavjum hunarmandchilik mahallalari joylashganidan guvohlik beradi.

Xullas, ko'p yillik arxeologik tadqiqotlar natijasida Zarafshon daryosi quyi o'zanlaridan birining sohilida bir-biriga qarama-qarshijoylashgan uchta aloqida qishloq asosida Buxoro shahri barpo bo'lgani aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Narshaxiy. Buxoro tarixi. –T.: Fan, 1966.
2. Rajabov Q., Inoyatov S. Buxoro tarixi. – T.: Tafakkur, 2016
3. Ahmedov S. Jahon xazinasi javohiri. -Buxoro: "Buxoro" nashriyoti, 1997.
4. Бартолд В.В. Географический очерк Мавераннахра. Соч. в 9-томах. Т.2. -М.: Наука, 1963.
5. Бартолд В.В. Бухара. Соч. в 9-томах. Т.1. ч.2. – М.: Наука, 1965.
6. Jumayev A.Sh. Buxoro arxeologiyasi (o'quv uslubiy qo'llanma). -Buxoro: "Buxoro" nashriyoti, 2006.
7. To'rayev H. Buxoro tarixi. – Buxoro: Durdona nashriyoti, 2020
8. To'rayev H. Mahalliy o'lkashunoslarning ilmiy merosida tarixiy topografiya va me'moriy obidalar tarixi.- Buxoro: "Buxoro" nashriyoti, 2019.
9. Якубовский А. Ю. Зарафшанская археологическая экспедиция 1939 г. Краткие сообщения о докладах и полевых исследованиях института истории материальной культуры. Вып. IV. Издательство Академик Наук СССР. -М.-Л. 1940. -С.51-66. 5.
10. Шишкин В.А. Археологические работ. 1937 года в западной части Бухарского оазиса.Ташкент,1940.; Шишкин. В.А. Варахша. -М.,1963.
11. А.Р.Мухаммеджанов, Ш.Т.Адылов, Д.К.Мирзаахмедов, Г.Л.Семенов «Городище Пайкенд». Т., 1988 й.